XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 2-mart VII-16-29-3-43-K/26 Arnasoy tumani

2026-yilda Arnasoy tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi “Aholining alohida turdagi iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini kafolatli ta’minlashga hamda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-269-sonli farmoni hamda 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarorining 2-xatboshi “v”-bandiga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish

uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. 2026-yil uchun Arnasoy tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ismatov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Otaqulov bilan birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror “Arnasoy tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin**.**

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Avalboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BAYANASOV BOBIR OCHILOVICH**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2026-yil 2-martdagi
VII-16-29-3-43-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Arnasoy tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	*O‘zgarishsiz qoldirish*
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	*O‘zgarishsiz qoldirish*